

“YASHIL” PEDAGOGIKA ASOSIDA INGLIZ TILINI O‘QITISH: EKOLINGVISTIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDAGI MUAMMOLAR

Mamatqulova Nilufar Fayzullaqulovna

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti,

Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada filolog talabalarining chet tili ta’limi kontekstida ekolingvistik kompetentsiyasini takomillashtirishda ekolingvistik yondashuvlarning ahamiyati muhokama qilinadi. Shuningdek, maqolada ekolingvistik ta’limni amalga oshirishdagi asosiy muammolar, jumladan, lingvistik to’siqlar, maxsus lug‘atlarning etishmasligi kabi muammolar tahlil qilinadi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ekolingvistik tarkibni kontent va tilni integratsiyalashgan o‘rganish (CLIL) va kontentga asoslangan ta’lim (CBI) kabi yondashuvlar orqali integratsiya qilish nafaqat tilni bilish darajasini oshiradi, balki tanqidiy fikrlashni, atrof-muhitdan xabardorlikni va talabalar motivatsiyasini rivojlantiradi. Tadqiqotning xulosasiga ko‘ra, o‘qituvchilar malakasini oshirish va siyosat islohotlari bilan qo‘llab-quvvatlangan o‘qitish metodologiyasini keng qamrovli va strategik o‘zgartirish ekologik jihatdan mas’uliyatli va lingvistik jihatdan barkamol o‘quvchilarni shakllantirish uchun zarurdir.

Kalit so‘zlar: ekolingvistika, YaITO‘ (yashil ingliz tilini o‘qitish- GELT-green English language teaching), chet tillarini o‘qitish, ekologik ta’lim, filolog talabalar, kontent va tilni integratsiyalashgan o‘rganish (CLIL) va kontentga asoslangan ta’lim (CBI)

Kirish. So‘nggi yillarda iqlim o‘zgarishi, biologik xilma-xillikning yo‘qolishi va ekologik tanazzul kabi global ekologik muammolarning dolzarbligi o‘rganishning turli sohalariga, jumladan, til o‘qitish ta’limiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Jamiyatlar barqaror yechimlarni qidirar ekan, ta’limning ekologik ong va mas’uliyatni tarbiyalashdagi roli tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ingliz tilini o‘qitishda yashil pedagogika til o‘rganuvchilarning atrof-muhit muammolari haqida xabardorligini oshirish va tabiiy dunyoga mas’uliyatli munosabatni rag‘batlantirish orqali lingvistik kompetentsiyaga qaratilgan an’anaviy e’tibordan tashqariga chiqadi. U til, ekologiya va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganadigan ekolingvistik sohasi bilan chambarchas bog‘liq. Ushbu chorahadagi asosiy maqsadlardan biri nafaqat lingvistik va kommunikativ ko‘nikmalarni, balki ekologik bilimlarni, axloqiy ongni va ekologik nutqni tanqidiy baholash qobiliyatini o‘z ichiga olgan ko‘p qirrali konstruktsiya bo‘lgan ekolingvistik kompetentsiyani rivojlantirishdir.

Uning ahamiyati tobora ortib borayotgan e’tirofqa qaramay, yashil pedagogikani ingliz tilini o‘qitishga integratsiyalash bir qator muammolarni keltirib chiqaradi. Ekologik mazmunga ega bo‘lgan o‘quv-uslubiy materiallarning yetarli darajada ta’minlanmaganligi, o‘qituvchilarning ekolingvistik yondashuvlar bo‘yicha yetarli darajada tayyorlanmaganligi, til o‘rgatish bilan ekologik ta’limni samarali uyg‘unlashtirish uchun metodik asoslarning cheklanganligi shular jumlasidandir.

Asosiy qism. Bir nechta tadqiqotchilar qayd etganidek YaITO‘ (yashil ingliz tilini o‘qitish- GELT-green English language teaching) prinsiplarini o‘rgatishda hali yetarlicha darsliklarda ekologik mazmun mavjud emas. Bu fikrni Mliless, Larouz va

Zahoor & Janjua tomonidan olib borilgan darslik tahlillari ham qo‘llab-quvvatlaydi. Rafael va Nandanani olib borgan tahlil natijalariga ko‘ra YaITO‘ amaliyotini yaxshilash uchun quyidagi jihatlarga e‘tibor qaratish lozimligi ta‘kidlanadi:

- Hozirgi ingliz tilini xorijiy til sifatida o‘qitish (EFL) darsliklarida ekologik mazmun yetarli darajada yoritilmagan. Shu bois, YITO‘ tamoyillarini ingliz tili o‘quv dasturlariga ataylab, maqsadli tarzda joriy etish zarur;

- YITO‘ni ta‘lim jarayoniga samarali tatbiq etish uchun yangi pedagogik uslublarni ishlab chiqish zarur. Bu borada ekologlar, tegishli tashkilotlar, shuningdek, raqamli texnologiyalarning rivojlanayotgan imkoniyatlaridan foydalanish muhimdir;

- O‘quv materiallarida madaniy xususiyatlarni hisobga olgan holda, mahalliy sharoitlarga mos yondashuvni tatbiq etish kerak. Bu, turli o‘quv muhitlarida materiallarning ahamiyatini oshiradi;

- O‘qituvchilarning ekologik mavzularni ingliz tili darslariga to‘g‘ri qo‘shish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun maxsus tayyorlov kurslari tashkil etilishi lozim;

- YITO‘ yondashuvi til o‘rganish jarayoniga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Bu uslub orqali o‘quvchilar hayotiy kontekstda tilni chuqurroq o‘zlashtiradi va darsga bo‘lgan qiziqish hamda rag‘bat kuchayadi;

- YITO‘ni muvaffaqiyatli tatbiq etishda o‘qituvchilarga yordam beradigan qo‘shimcha vositalar – masalan, raqamli kutubxonalar, o‘quv materiallari va texnik vositalar – yetarli darajada ta‘minlanishi kerak;

- Ta‘lim siyosatlarini qayta ko‘rib chiqilib, ekologik mazmunni kengroq miqyosda ingliz tili o‘quv dasturlariga kiritishni qo‘llab-quvvatlaydigan holatga keltirilishi maqsadga muvofiq.[7;9;5;6.]

Shu jihatdan, YITO‘ nafaqat atrof-muhitga nisbatan mas‘uliyatni shakllantirish, balki tilni chuqurroq va maqsadli o‘rganishga ko‘maklashuvchi yondashuv sifatida qaralmoqda. Shuningdek, YITO‘ni amaliyotga tatbiq etishda pedagoglar malakasini oshirish, dars rejalariga ekologik muammolarni kiritish, hamda raqamli resurslardan keng foydalanish bo‘yicha strategiyalar ishlab chiqilishi zarurligi ko‘plab manbalarda qayd etilgan. Bu esa, barqaror va ekologik ongli ta‘lim tizimini yaratishda o‘qituvchilar, noshirlar hamda siyosatchilar o‘rtasidagi hamkorlikning muhimligini ko‘rsatadi.

Kazazoglu ta‘kidlashicha ingliz tilini o‘rganishda ekologik savodxonlikni integratsiya qilish nafaqat til o‘rganishga motivatsiyani oshiradi, balki real muammolarni muhokama qilish orqali talabalarni faol ishtirok etishga undaydi. Shu bilan birga, bu metod ba‘zi *qiyinchiliklarni* ham yuzaga keltiradi. Jumladan, murakkab ekologik atamalarni ingliz tilida tushunish va ulardan foydalanish ko‘nikmalari yetarli bo‘lmagani sababli, maxsus so‘z boyligini rivojlantirishga ehtiyoj seziladi. Shuningdek, nazariy mavzularni shaxsiy hayot tajribasi bilan bog‘lay olmaslik holatlari ham mavjud. Shu sababli, tajribaviy o‘quv uslublari — masalan, loyiha asosidagi ishlar yoki multimedia vositalaridan foydalanish — talabalarning tushunchasini chuqurlashtirishda samarali bo‘lishi mumkin. Tadqiqotchi fikriga ko‘ra barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda ingliz tilini o‘rganishda ekologik savodxonlikni integratsiya qilish o‘qituvchi tayyorlash dasturlari, tajribaviy o‘qitish va fanlararo hamkorlik orqali yanada kuchaytirilishi mumkin.[4]

Konde va Sanchesning bayon qilishicha o‘quv dasturiga “yashil” pedagogikani kiritish shunchaki mavjud materiallarga ekologik masalalarni "qo‘shish"dan ko‘ra

ko‘proq narsani anglatadi. O‘quv dasturini yashillashtirish “yashil” pedagogikaning yuqori darajadagi intellektual va metodologik tamoyillarini o‘quv dasturiga tizimli ravishda integratsiya qilishni nazarda tutadi. Ta’kidlanishicha “Maktab hayotiga ekologik ta’limni integratsiya qilish, maktabning o‘zida barqaror rivojlanishga erishish uchun turli frontlarda muvofiqlashtirilgan yondashuvni talab qiladi. Asosiy qoida - atrof-muhitni boshqarish, o‘quv dasturini yashillashtirish, tashkilot turi va ta’lim hamjamiyati a’zolari o‘rtasidagi munosabatlar targ‘ib qilinayotgan ekologik ta’limga mos kelishi kerak. Maktabning butun ta’lim hamjamiyati keng qamrovli ish majburiyatiga erishish uchun ishtirok etishi kerak.”[2]

Bir qancha tadqiqotchi va olimlarning ishlarini o‘rganib, tahlil qilib filolog talabalarning ekolingvistik kompetensiyasini oshirishda xorijiy tillarni o‘qitish dasturiy ta’minotini takomillashtirishning quyidagi qiyinchiliklarini qisqacha bayon qildik (1-jadvalga qarang) [1;3;8].

1-jadval

Filolog talabalarning ekolingvistik kompetensiyasini oshirishda xorijiy tillarni o‘qitish dasturiy ta’minotini takomillashtirishdagi qiyinchiliklar

№	Qiyinchilik / Masala	Tavsif	Ta’lim beruvchilar uchun tavsiyalar
1.	Turli xil talabalar, turli ehtiyojlar va madaniy nuqtai nazar	O‘quvchilar iqlim o‘zgarishi haqidagi turli madaniy qarashlar va bilim darajasiga ega.	Inklyuziv va madaniy sezgir ta’lim yondashuvlarini qo‘llash, barcha fikrlarni hurmat qilish zarur.
2.	Til to‘siqlari va maxsus lug‘atni rivojlantirish	Iqlim va atrof-muhit mavzusidagi maxsus so‘z va tushunchalarni o‘rgatishda qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin xususan, lug‘at boyligini yetishmasligi kabilar.	Lug‘at mustahkamlash mashqlari, vizual yordamlar va kontekstga boy materiallardan foydalanish maqsadga muvofiq.
3.	Til va mazmun integratsiyasi muammolari	Iqlim adolati murakkab ijtimoiy, siyosiy va ekologik tushunchalarni o‘z ichiga oladi, bu xorijiy tilda tushunishda qiyinchilik tug‘diradi. Ekolingvistik terminologiya qo‘shimcha yuk bo‘ladi.	Mavzuni soddalashtirish va qadam-baqadam tushuntirish, qo‘shimcha lug‘at va izohlar berish zarur.
4.	O‘quv resurslarining yetishmasligi	Zamonaviy, kontekstga moslashtirilgan ekologik va ijtimoiy adolat mavzularini qamrab olgan o‘quv materiallari kam.	Resurslarni yangilash, ekologik mavzuga oid ko‘plab autentik materiallarni qo‘shish maqsadga muvofiq.
5.	O‘qituvchilarning tayyorgarlik darajasi	Ko‘pchilik o‘qituvchilar ekologik va ekolingvistik kompetensiyalarga ega emas, bu o‘qitish sifatiga ta’sir qiladi.	Maxsus trening va malaka oshirish kurslarini tashkil etish, chuqur

			bilimlarni taqdim etish tavsifa etiladi.
6.	Talabalar motivatsiyasi	Ba'zi talabalar ekologik mavzularni zerikarli yoki o'z hayotlariga aloqasi yo'q deb hisoblaydi, bu motivatsiyani pasaytiradi.	Mavzuni amaliy va hayotiy misollar bilan qiziqarli qilish, faol muhokamalarni tashkil etish maqsadga muvofiq.
7.	Baholash mezonlarini aniqlashdagi qiyinchiliklar	Ekolingvistik kompetensiyalarni aniq va adolatli baholash uchun mezonlar yetishmaydi.	Baholash mezonlarini ishlab chiqish, interfaol baholash usullarini qo'llash maqsadga muvofiq.
8.	Materiallar va mashg'ulotlarning dolzarbligi va autentikligi	Ta'lim materiallari real hayotga mos va o'quvchilarning kundalik hayotiga yaqin bo'lishi kerak.	Yangilik maqolalari, multimedia resurslari va real hayot misollaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda filolog talabalarning ekolingvistik kompetensiyasini oshirishda xorijiy tillarni o'qitish dasturiy ta'minotini takomillashtirishda ekolingvistik yondashuvni integratsiyalash, nafaqat til kompetensiyalarini rivojlantirish, balki talabalar ekologik ongini shakllantirish va ularni global muammolarga mas'uliyat bilan yondashishga undashning samarali yo'li sifatida namoyon bo'lmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, ingliz tilini o'rgatishda "yashil" pedagogika, fan va til integrallashgan holda o'qitish (CLIL-Content and Language Integrated Learning), mazmunga asoslangan til o'rgatish (CBI-Content-Based Instruction) va YaITO' (yashil ingliz tilini o'qitish) kabi metodlar orqali ekologik mazmundagi darslar talabalarni tanqidiy fikrlashga, ijodkorlikka, ijtimoiy faollikka va barqarorlik tamoyillarini anglashga yo'naltiradi. Ekologik ta'limni ta'lim dasturlariga chuqur va tizimli tarzda integratsiya qilish — bu tasodifiy mavzular qo'shish emas, balki metodologik yondashuvni tubdan o'zgartirishni talab etadi. Shu bois, filolog talabalarning ekolingvistik kompetensiyasini oshirishda *o'qituvchilarning malakasi, o'quv materiallarining sifati, fanlararo hamkorlik va ta'lim siyosatining qo'llab-quvvatlovi* muhim rol o'ynaydi. Bu jarayonda o'qituvchilar, talabalar va ta'lim muassasalari hamkorligi ekologik savodxon va mas'uliyatli avlodni shakllantirish uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alyani E., Nargis, Gunawan Y. I. Teachers' Perspective on Addressing Environmental Issues in English Language Learning // *Loquen: English Studies Journal*. – 2024. – Vol. 17, No. 2. – P. 19. – DOI: 10.32678/loquen.v17i2.10718.
2. Conde M.D.C., Sanchez J.S. The school curriculum and environmental audit experience // *International Journal of Environmental Science Education*. – 2010. – Vol. 5, № 4. – P. 477–494.
3. Hameed A. Environmental Concerns and English Language Teaching in Saudi Context: Perceptions and Practices // *Journal of Language Teaching and Research*. – 2023. – Vol. 14, No. 4. – P. 1127–1137. – DOI: <https://doi.org/10.17507/jltr.1404.31>. – ISSN 1798-4769.

4. Kazazoglu S. Environmental Education Through Eco-Literacy: Integrating Sustainability into English Language Teaching // *Sustainability*. – 2025. – Vol. 17. – Art. no. 2156. – DOI: <https://doi.org/10.3390/su17052156>.
5. Mamatkulova N. F. Enhancing Students' Ecolinguistic Awareness as a key Educational Priority in the 21st Century.// *O'zbekistonda xorijiy tillar*. — 2025.— 11-jild, № 4. — B. 152-166.
6. Mliless, M., Larouz, M. An ecolinguistic analysis of environment texts in Moroccan English language teaching textbooks // *International Journal of Research in Environmental Studies*. – 2018. – Vol. 5. – P. 103–116.
7. Raphael E. B., Nandan S. L. Green English Language Teaching and EFL Textbooks: Fostering Environmental Consciousness in Language Education // *RESEARCH REVIEW International Journal of Multidisciplinary*. – 2024. – T. 9. – № 4. – B. 108–119. – DOI: <https://doi.org/10.31305/rrijm.2024.v09.n04.013>.
8. Uma U. Integrating Resilience Considerations into English Language Teaching in the Context of Climate Change // *Shanlax International Journal of English*. – 2024. – T. 12. – S. 5–11. – DOI: 10.34293/english.v12iS1-Feb.7404.
9. Zahoor, M., Janjua, F. Green contents in English language textbooks in Pakistan: An ecolinguistic and ecopedagogical appraisal // *British Educational Research Journal*. – 2020. – Vol. 46, № 2. – P. 321–338. – URL: <https://doi.org/10.1002/berj.3579> (murojaat sanasi: 02.07.20235).